

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA BADIY ASAR TAHLILI
KO'NIKMLARINI PIRLS METODIKASI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH
(«TEMIR QOZIQ» HIKOYASI MISOLIDA)**

Murodova Farangis G'anisherovna

Alfraganus Universiteti "Pedagogika" kafedrası v.b dotsenti.,
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD).

O'tkurova Xadicha

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19856581>

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'qish darslarida badiiy asarni tahlil qilishning an'anaviy va zamonaviy yondashuvlari qiyosiy tahlil qilingan. Xususan, PIRLS xalqaro baholash dasturi talablari asosida matn ustida ishlashning afzalliklari O'tkir Hoshimovning «Temir qoziq» hikoyasi misolida yoritib berilgan. Maqola bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari va talabalar uchun metodik tavsiya vazifasini o'taydi.*

***Kalit so'zlar:** PIRLS, badiiy asar tahlili, boshlang'ich ta'lim, interpretatsiya, tanqidiy fikrlash, an'anaviy metodika, kognitiv darajalar, vijdon tarbiyasi.*

Zamonaviy globallashuv va axborot texnologiyalari shiddat bilan rivojlanayotgan davrda boshlang'ich ta'lim tizimi oldiga qo'yilgan talablar tubdan o'zgardi. Endilikda ta'limning asosiy maqsadi o'quvchiga faqat tayyor bilimlarni berish emas, balki unda mustaqil fikrlash, olingan ma'lumotni tahlil qilish va hayotiy vaziyatlarda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirishdan iboratdir. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarining badiiy asarni idrok etishi va uni tahlil qilishi jarayoni — bu shunchaki akademik mashg'ulot emas, balki komil inson shaxsini shakllantirishning fundamental poydevoridir.

O'zbekiston ta'lim tizimining xalqaro baholash dasturlari, xususan, PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) dasturiga integratsiyalashuvi boshlang'ich sinf O'qish savodxonligi darslariga mutlaqo yangicha ruh olib kirdi. PIRLS talablari bizdan matnni yuzaki o'qishni emas, balki uning «qatlamlari» orasiga kirib borishni, muallifning yashirin niyatini ilg'ashni va asarni shaxsiy ma'naviy tajriba prizmasidan o'tkazishni talab qiladi.

Agar o'quvchidan hikoyada nima bo'lganini so'rasangiz — u faqat xotirasini ishga soladi. Agar undan «nima uchun bunday bo'ldi?» deb so'rasangiz — u tafakkurini ishga soladi.

Bugungi boshlang'ich ta'lim tizimi oldida turgan eng dolzarb masalalardan biri — matnni shunchaki o'qiydigan emas, balki uni anglaydigan, tahlil qiladigan va undan xulosa chiqara oladigan kitobxon shaxsni tarbiyalashdir. Biroq, metodik kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, ko'p hollarda badiiy asar tahlili hali ham an'anaviy qoliplardan chiqib ketgani yo'q. An'anaviy tahlilda ko'pincha matnning reproduktiv darajasi (nima bo'ldi? qayerda bo'ldi?) ustunlik qiladi.

Bu esa o'quvchini passiv tinglovchiga aylantirib qo'yadi. Vaholanki, 4-sinf darsligidan joy olgan O'tkir Hoshimovning «Temir qoziq» hikoyasi kabi asarlar — bu bolaning vijdoni, vatanparvarligi va insoniy qiyofasini shakllantiradigan ma'naviy maktabdir.

Mazkur asarni PIRLS talablari asosida «aylantirib» tahlil qilish — bolaning labiga uchuq toshishiga sabab bo'lgan o'sha ichki ruhiy titroqni, ya'ni vijdon amrini anglashiga ko'maklashadi. Biz o'quvchi matndagi voqelikni shunchaki bilishini yoki yod olishini emas, balki o'sha voqelik ichida yashashini, qahramon bilan birga azoblanib, birga poklanishini maqsad qilganmiz.

Ushbu maqolaning dolzarbligi shundaki, unda an'anaviy metodikaning o'n yillik tajribalari va PIRLS xalqaro standartlarining ilg'or mezonlari sintez qilinadi. Biz «Temir qoziq» hikoyasi misolida asar tahlilini qanday qilib «bola qalbi va ongini tarbiyalovchi qurol»ga aylantirish mumkinligini amaliy jihatdan isbotlashga intilamiz. Zero, boshlang'ich sinf o'qituvchisining mahorati — quruq metodikadan voz kechib, har bir badiiy matnni bolaning hayotiy darsiga aylantira olishidadir.

Badiiy asarni tahlil qilish metodikasi uzoq yillik shakllanish yo'liga ega bo'lib, u jamiyatning ta'limga bo'lgan talabi asosida o'zgarib kelmoqda. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining psixologik xususiyatlari — emotsionalligi, tasavvurining kengligi va voqelikni qahramonlar orqali idrok etishi tahlil jarayonining o'ziga xosligini belgilaydi.

O'zbek adabiyotshunosligi va metodikasining «oltin fondi»ga aylangan manbalar, xususan, metodist olim S.Matchonov asarlarida badiiy tahlilning fundamental bosqichlari belgilab berilgan.

«Boshlang'ich sinflarda matn ustida ishlash — bu o'quvchining lug'at boyligini oshirish, gap qurish qobiliyatini rivojlantirish va mantiqiy fikrlashini tartibga solish jarayonidir».¹

An'anaviy yondashuvning ijobiy tomoni shundaki, u o'quvchiga mustahkam poydevor beradi. V. Qodirov tavsiya etganidek, matnni qismlarga bo'lish, reja tuzish va qayta hikoyalash orqali bola voqealar zanjirini bog'lashni o'rganadi. Biroq, bu metodikaning bugungi kun uchun biroz torlik qiladigan jihati shundaki, savollar asosan reproduktiv xarakterga ega. Masalan, «Ota bolaga nima dedi?» kabi savollarga javob berish uchun bola faqat xotirasini ishga soladi, xolos.

Bu bosqichda asar tahlili ko'pincha «axloqiy dars» bilan tugaydi, ammo bolaning ichki meniga tegib o'tmaydi.

Zamonaviy o'qitish metodikasining bayroqdori, professor Qozoqboy Yo'ldoshev badiiy tahlilni tubdan isloh qilish kerakligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, asar tahlili — bu bolaning ruhini tarbiyalash jarayonidir.

«Badiiy asar — bu muallifning o'quvchiga yozgan «maxfiy xati». Tahlil esa o'sha xatni o'quvchi o'zi uchun kashf qilishi, o'zining dardu quvonchini o'sha matndan topishidir».²

Mana shu nuqtada PIRLS xalqaro baholash tizimi bizga tayyor metodik yechimni taklif qiladi. PIRLS talablariga ko'ra, o'quvchi matnni 4 ta kognitiv jarayon orqali o'zlashtirishi shart.³

Bu talablar O'zbekiston Respublikasining Milliy o'quv dasturi va O'qish savodxonligi darsliklarining metodik asosini tashkil etadi.

1. Axborotni topish va aniqlash: Bu bosqichda bola diqqatni jamlashni o'rganadi. (Masalan: «Qoziq qanday materialdan edi?»).

2. To'g'ridan-to'g'ri xulosalar yasash: Bu yerda «sabab-oqibat» aloqasi o'rgatiladi. (Ota nima uchun darg'azab bo'ldi?).

3. Interpretatsiya (Matnni hayot bilan bog'lash): Bu yerda bola asar qahramoni bilan do'stlashadi yoki bahslashadi.

4. Matnni baholash: Bu bosqichda o'quvchi sub'yektga aylanadi. U muallifning mahoratini va qahramonning xatosini tahlil qiladi. Muallif nega aynan shu detalni (masalan, «temir qoziq»ni) tanladi? degan savolga javob izlaydi.

An'anaviy usul — bu binoning poydevori, ya'ni til va nutq qoidalarini o'rgatadi. PIRLS va zamonaviy talqin esa — shu binoning havo va nuri, ya'ni tafakkur va erkin fikrdir.

¹ Matchonov S. 2015, 62-bet

² Yo'ldoshev Q. 2006, 89-bet

³ O'zbekiston Respublikasining Milliy o'quv dasturi (2021)

Agar biz faqat an'anaviy usulda qolsak, o'quvchi «savodli, lekin hissiz» bo'lib qolishi mumkin. Agar faqat zamonaviylikka intilib, poydevorni unutib qo'ysak, bolaning fikri tushunarsiz va asoslanmagan bo'lib qoladi.

Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan «Yangi O'zbekiston — ma'rifatli jamiyat» g'oyasi⁴ aynan shu ikki kuchning birlashishini taqozo etadi. Ya'ni, bolalarimiz ham klassik adabiyotimizni yaxshi bilishi, ham dunyo miqyosida tanqidiy fikrlay olishi ham zarur.

«Temir qoziq» hikoyasini shunchaki o'qib o'tmaymiz, uni PIRLS «prizmasi» ostida qismlarga bo'lib, o'quvchining yuragiga olib kiramiz:

1. Matnda bola temir qoziqni topib olganda «sevinib ketadi». An'anaviy tahlilda biz buni shunchaki «topilma» deymiz. PIRLS usulida esa: «*Bola nima uchun sevingan edi? U bu qoziq kimniki ekanini o'yladimi?*» degan savol orqali bolani o'z g'alar mulkiga munosabat haqida o'ylashga majbur qilamiz.

2. Ko'pincha o'quvchilar otani «qattiqo'l» deb baholashadi. Aslida esa, otaning o'g'lini yarim tunda yolg'iz yuborishi — bu haqiqiy «amaliy dars»dir.

«*Sen aralashma!*» — deydi ota onasiga. Bu jumla PIRLSning interpretatsiya darajasida tahlil qilinadi: Ota nega onaning aralashishiga yo'l qo'ymadi? Chunki erkak kishi o'z qilmishi uchun javob berishni o'rganishi kerakligini o'rgatdi.

3. Hikoya oxirida bolaning labiga uchuq toshishi — bu shunchaki kasallik emas.

Bu — Vijdon poklanishi. Bola jismonan qo'rqdi, lekin ruhan yuksaldi. Biz o'quvchidan so'raymiz: «*Seningcha, uchuq toshgani yaxshimi yoki o'sha qoziqni uyda olib qolganimi?*».

Mana shu savol bolani tarbiyalaydi.

An'anaviy usul matnning tashqi qobig'ini so'zlar, faktlar orqali uqdirsa, PIRLS esa ichki mag'izini ya'ni tuyg'ular falsafasini o'rgatadi.

An'anaviy tahlil bolaga «Nima?» degan savolga javob berishni o'rgatsa, PIRLS va zamonaviy konsepsiyalar «Nima uchun?» va «Keyin-chi?» degan savollar bilan kelajakka tayyorlaydi. Bolaga halollik haqida yuz marta ma'ruza o'qiganimizdan ko'ra, «Temir qoziq»dagi bolaning qo'rquvini his qildirish samaraliroqdir. 4-sinf O'qish savodxonligi darslarida badiiy asar tahlili — bu shunchaki o'quv predmeti emas, balki milliy g'oya va tarbiya asosi bo'lishi kerak. An'anaviy metodikaning tajribasi bilan PIRLSning zamonaviy talablarini birlashtirish orqali biz nafaqat xalqaro reytinglarda yuqori o'rin olamiz, balki eng muhimi — vijdoni uyg'oq avlodni tarbiyalaymiz.

Xulosa

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida badiiy asar tahlili ko'nikmalarini takomillashtirish masalasini tadqiq etar ekanmiz, biz shunchaki metodik tajribani emas, balki bolaning matn orqali o'zligini kashf etish jarayonini kuzatdik. O'tkir Hoshimovning «Temir qoziq» hikoyasi misolida olib borilgan tahlillarimiz bizni quyidagi xulosalarga olib keldi:

1. «Bilim»dan «Hissiyot»ga o'tish zarurati. An'anaviy metodika bizga matnning «suyagi»ni (grammatika, lug'at, reja) o'rgatdi. Biroq, PIRLS texnologiyasi bizga matnning «ruhi»ni ko'rsatib berdi. Xulosamiz shuki, 4-sinf o'quvchisi uchun matn — bu ma'lumotlar to'plami emas, balki ma'naviy sinov maktabidir. Bola qoziqni joyiga qo'yish uchun zulmatga qarab ketayotganda, u shunchaki otasining buyrug'ini bajarmaydi, u o'zining qo'rquvi ustidan g'alaba qozonadi. Shunday ekan, darslarimizda «Nima bo'ldi?» degan savoldan ko'ra, «Sen qahramonning qalbida nimani ko'rding?» degan savol ustuvorroq bo'lishi shart.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "2022–2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi PF-134-son Farmoni. "Xalq so'zi" gazetasi, 2022-yil 12-may.

2. «Uchuq» — Vijdoning lisoniy ifodasi. Tadqiqotimizning eng noodatiy jihati shundaki, biz badiiy detalni ya'ni uchuqni shunchaki tibbiy yoki fizik holat emas, balki «vijdoni poklanish ramzi» sifatida tahlil qildik. PIRLS mezonlari asosida o'tkazilgan darslarimiz shuni ko'rsatdiki, bola qachonki qahramonning azobini o'z tanasida his qilsa, shundagina haqiqiy tarbiya amalga oshadi. An'anaviy usul bergan halollik haqidagi nazariy bilim, zamonaviy tahlil orqali bolaning «shaxsiy haqiqati»ga aylandi.

3. O'qituvchi — Tayyor xulosa beruvchi emas, balki yo'l ko'rsatuvchidir. Xalqaro baholash dasturlari bizdan dars strukturasi o'zgartirishni talab qilmoqda. Bizning xulosamizga ko'ra, o'qituvchi endi «mana bu qahramon — yaxshi, bunisi — yomon» deb hukm chiqaruvchi hakam emas, balki bolani matn qatlamlari orasida adashib qolmasligini ta'minlovchi «metodik yo'l ko'rsatuvchi»bo'lishi lozim.

Metodik tavsiyalar:

«Sukunat daqiqalari»: Matn o'qib bo'lingach, bolalarga darrov savol bermaslik, ularga qahramon holatini his qilish uchun vaqt berish.

«Savollar shajarasi»: Savollarni osonidan qiyiniga emas, balki «matndan — qalbga» tomon yo'naltirish.

«Rangli tahlil»: Qahramonning holatini ranglar yoki musiqiy ohanglar bilan qiyoslash orqali uning ichki dunyosini PIRLS mezonlari (interpretatsiya) asosida ochib berish.

Yakuniy xulosa shuki, an'anaviy metodika — bu bizning ildizimiz, PIRLS esa — shoxlarimizdir. Ildizsiz daraxt ko'karmaganidek, shoxlarsiz daraxt ham meva bermaydi.

Boshlang'ich ta'limda ushbu ikki quvvatni birlashtirish orqali biz nafaqat xalqaro reytinglarda o'rin olamiz, balki eng muhimi — har bir bolaning qalbidagi «temir qoziq»ni — uning mustahkam irodasi va vijdonini shakllantiramiz

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdullayeva Q.R. Boshlang'ich sinflarda o'qish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2019. – 224 b.
2. Ashrapova M.N. Adabiy tahlil asoslari: boshlang'ich ta'lim uchun. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. – 196 b.
3. G'ulomov A.G'. O'zbek adabiyoti nazariyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2018. – 312 b.
4. Hasanov R.X. O'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirish metodikasi. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2020. – 178 b.
5. Isoqov B.I. Boshlang'ich sinf adabiy o'qish: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Barkamol fayz media, 2022. – 248 b.
6. Mahkamov N.M. Matn tahlilining lingvistik asoslari. – Toshkent: Fan, 2017. – 264 b.
7. Matchonov S.A. Adabiyot o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2018. – 320 b.
8. Mirsoatova X.S. Boshlang'ich ta'limda o'qish ko'nikmalarini shakllantirish. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2021. – 152 b.
9. Nishonova S.T. O'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish. – Toshkent: TDPU, 2022. – 140 b.